





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH AGENTLIGI**

## DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ISHLARINING SAMARADORLIGINI REYTING BAHOLASH TIZIMI

**1-yo'nalish.** Davlat tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi  
**Maksimal ball 35**

**2-yo'nalish.** Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilganligi  
**Maksimal ball 30**

**3-yo'nalish.** Davlat tashkilotlari rahbarlarining korruptsiyaga qarshi murossasiz munosabatini ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi  
**Maksimal ball 15**

**4-yo'nalish.** Xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi  
**Maksimal ball 15**

**5-yo'nalish.** Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu ilatga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi  
**Maksimal ball 5**

**REYTING BAHOLASH INDIKATORLARI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA QUVIDAGI ICHKI IDORAVIY HUJJATLARNING MAVJUDLIGI VA HUJJATLARDA NAZARDA TUTILGAN MEKANIZMLARNING JORIY ETILGANLIGIGA ASOSLANGAN:**

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati
2. O'odob-axloq qoidalari
3. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti
4. Manfa'atlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom
5. Aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti
6. Xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomalar
7. Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomalar
8. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomalar
9. Korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti
10. Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti
11. Korruptsiyaviy xatti-harakatlar va o'odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament
12. Davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom

**BAHOLASHNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**  
(Baholash oldingi yilning 1-yanvaridan baholanish o'tkazilayotgan yilning 1-yanvarigacha qadar bo'lgan davrni qamrab oladi)

Agentlik **5-yanvar**ga qadar "E-Anticor.uz" elektron platformasi orqali reyting baholashdan o'tkaziladigan davlat tashkilotlari ro'yxatini tuzadi hamda bu haqda ularni yozma ravishda xabardor qiladi

Davlat tashkilotlari yillik ma'lumotlarini **10-yanvar**ga qadar "E-Anticor.uz" elektron platformaga kiritadi

Ma'lumotlar kiritilgandan so'ng Agentlik **1-fevral**ga qadar ma'lumotlarning haqqoniyligini o'rganadi

Agentlik tomonidan shakllantirilgan dastlabki reyting baholash natijalari **5-fevral**ga qadar reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhiga taqdim etadi

Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tomonidan dastlabki reyting baholash natijalari **15-fevral**ga qadar Agentlikka taqdim etadi

Agentlik Ekspertlar guruhi xulosasini (yoki muqobil reyting baholash natijasi) **20-fevral**ga qadar puxta tahlil qiladi va unga ko'ra yakuniy baholash natijalarini shakllantiradi va baholanayotgan davlat tashkilotlariga yuboradi

Davlat tashkilotlari **25-fevral**ga qadar Agentlik tomonidan yuborilgan yakuniy baholash natijalarini ko'rib chiqadi va zarurat bo'lganda o'z taklif va e'tirozlarini Agentlikka taqdim qiladi

Agentlik davlat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan taklif va e'tirozlarni puxta tahlil qilib, yakuniy reyting natijalarini **1-mart**ga qadar O'zbekiston Respublikasi korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga kiritadi hamda Agentlik rasmiy veb-sayti va OAVda e'lon qiladi

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ISHLARINING SAMARADORLIGI QUVIDAGI TOIFALARGA AJRATILADI**

- "YAXSHI" – 81 ball dan 100 ballgacha
- "QONIQRARLI" – 55 ball dan 81 ballgacha
- "QONIQRSIZ" – 55 ball dan past

**REYTING BAHOLASHNI MUSTAQIL AMALGA OSHIRUVCHI EKSPERTLAR GURUHI**

- 9 kishidan iborat Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi shakllantiriladi
- Ekspertlar guruhi tarkibida kamida 3 kishi fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bo'ladi

**REYTING BAHOLASH YAKUNLARI BO'YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN TADBIRLAR**

- Korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "yaxshi" deb topilsa, davlat tashkilotlarining ijobiy ish tajribasi boshqa davlat tashkilotlarida ommalashtiriladi va mas'ul tarkibiy bo'linimlari xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritiladi
- "Qoniqrarli" deb topilsa, samaradorlikni yanada oshirish bo'yicha tavsiyalar kiritiladi
- "Qoniqsiz" deb topilsa, chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi
- Ketma-ket ikki yil davomida korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "qoniqsiz" deb topilsa, rahbarlarni intizomiy javobgarlik choralari ni qo'llash masalasi belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi

Давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларида коррупцияга қарши курашиш бўйича чора-тадбирларнинг самарадорлиги рейтинг баҳолашдан ўтказилди (<https://anticorruption.uz/uz/item/2023/03/14/korruptsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-chora-tadbirlarning-samaradorligi-reyting-baholashdan-otkazildi>).

Баҳолаш натижаларига кўра, 62 та давлат ташкилотининг коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлиги 0 баллдан 100 баллгача рейтингда баҳоланди. Рейтинг баҳолаш натижаларига кўра «Ўзкимёсаноат» АЖ 62 та давлат ташкилотлари ичида **89 балл билан 4-ўринни эгаллади.**

«Ўзкимёсаноат» АЖ коррупцияга қарши муrossасиз курашиш ва ушбу иллатнинг олдини олиш юзасидан тизимли ишларни давом эттиради.

**"Ўзкимёсаноат" АЖ Матбуот хизмати**

2/2